

IMOM DORAQUTNIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI
ЖИЗНЬ И НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИМАМА ДАРАКУТНИ
THE LIFE AND SCIENTIFIC ACTIVITY OF IMAM DORAQUTNI

Kenjayev Nodirbek Abdulxamidovich

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Imom Doraqutniy hadis ilmi borasida juda ko‘p e‘timodli kitoblar yozgan. Uning kitoblari barchaning murojaat qiladigan kitoblariga aylangan. Uning yozgan asarlari o‘z davridan hozirgi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Imom Doraqutniy yashab ijod etgan asr mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy ahvol, Imom Doraqutniyning ilmiy-ma‘naviy merosiga oid ma‘lumotlarni undan keyingi olimlar o‘z asarlarida yoritib o‘tgan. Jumladan, Xatib Bag‘dodiy, Imom Zahabiy, Imom Suyutiy kabi olimlarni sanab o‘tishimiz mumkin. Biroq bu ma‘lumotlarning aksar qismi arab tilidagi asarlarda mavjud.

Kalit so‘zlar: Imom, Doraqutn, Qur‘oni Karim va hadis ilmlari, tafsiri, hadislar va fiqhiy masalalar, zamonaviy jamiyat, to‘g‘ri e‘tiqod, diniy ta‘lim, tadqiqot, milliy va islomiy qadriyat.

Аннотация: Имам Доракутний написал множество авторитетных книг по науке хадисов. Его книги стали источниками обращения для многих людей. Работы, написанные им, не утратили своей значимости с его времени и до сегодняшнего дня. Век, в котором жил и творил имам Доракутний, а также политическая и социальная обстановка в стране, подробно описаны в трудах последующих ученых. Среди них можно выделить таких ученых, как Хатиб аль-Багдади, Имам аз-Захаби, Имам ас-Суюти. Однако большинство из этих сведений содержится в арабоязычных трудах.

Ключевые слова: Имам, Доракутний, науки о Коране и хадисах, тафсир, хадисы и фихховые вопросы, современное общество, правильная вера, религиозное образование, исследование, национальные и исламские ценности.

Annotation: Imam Daraqtuniy wrote numerous highly respected books on the science of Hadith. His books have become references for scholars and have maintained their significance from his time to the present day. The political and social conditions of the era in which Imam Daraqtuniy lived, as well as his intellectual and spiritual legacy, have been discussed by later scholars in their works. Among these scholars are Khattib Baghdadi, Imam Dhahabi, and Imam Suyuti, to name a few. However, much of this information is found in works written in Arabic.

Keywords: Imam, Daraqtuni, Qur'an and Hadith sciences, tafsir, Hadiths and fiqh issues, contemporary society, correct belief, religious education, research, national and Islamic values.

Kirish. Insoniyat taraqqiyoti tarixida shunday shaxslar bo'lganki, ularning faoliyati mahalliy, madaniy hudud chegarasidan tashqariga chiqibgina qolmay, balki davrlar chegarasini yorib o'tib g'oyalar rivojlanishida butun jahon taraqqiyotining bir qismiga ham aylangan. Ularning asarlari barcha nodir hodisalar singari avval o'tganlar tajribalarining eng qimmatli tomonlarini o'zida gavdalantiradi, jamiyatning ilmiy fikri, hamda ma'naviy madaniyatning keyingi ko'p asrlarda sodir bo'ladigan yuksalish harakatini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, asrlar davomida e'tiqod qilib kelingan muqaddas Islom dini asosidagi ota bobolarimizdan meros bo'lib qolgan buyuk ma'naviyatni o'rganish, unga xolisona fikr bildirish, hayotimizga tadbiiq qilish va yoshlarimizni milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimiz bilan tarbiyalashga katta imkoniyatlar yaratildi.

Ayni damda biz islom dinisiz o'z hayotimizni tasavvur ham qila olmaymiz. Chunki, Ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir mezon,

muqaddas dinimiz. Islom dinining o'zi ma'naviyatimiz tarixining ajralmas qismi bo'lib, zamirida xalqimizning o'zligini anglash yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas. Mana shu jihatdan hozirgi davrda xalqimizga muborak dinimizning asl negizi va mazmun mohiyatini yetkazib berish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. “Ey, Bag’dod ahli, men tirik ekanman Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga biror kishi yolg’on to’qishini hayolingizga ham keltirmang”.

Mana shunday jasorat sohibi, Abulhasan Ali ibn Umar ibn Ahmad ibn Mahdiy ibn Mas’ud ibn No’mon Bag’dodiy Doraqtuniy hijriy 306-yil, zulqa’da oyining beshinchisida Bag’dod shahrining mashhur «Doral-qutn» mahallasida tug’ilganlar.

U zotning oilalari haqida biror bir manbada to’liq ma’lumot berilmagan. Lekin otasi Umar ibn Ahmad ibn Mahdiy Bag’dodiy haqida «Doral-qutn» qishlog’ining ilmli kishilaridan biri bo’lganligi, shu bilan birga Doraqtuniyning qiro’at shayxlaridan biri ekanligi rivoyatlar va manbalarda ko’rsatilgan. Shuningdek, u hadis ilmidan birinchi saboqlarini ham otalaridan olgan. Zero, Imom Doraqtuniy o’zining “Sunan”ida bir necha hadislarni otalaridan rivoyat qilgan .

Imom Doraqtuniy e’tiqod borasida salafi solihlarga ergashgan va bid’atchilarning bid’atlaridan uzoqda bo’lganlar. Bu narsa u zotning kitoblari va u kishidan hadis hamda uning ilmi borasida rivoyat qilingan so’zlarida bilinib turadi. Abulhasan Doraqtuniy aqidani o’z masdari, ya’ni Allohning kitobi va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlaridan olganlar.

Imom Doraqtuniy aqida borasida bir necha kitoblar yozganlar. Jumladan, “Kitob ahodisu sifot”, Kitob nuzul”, “Kitob ru’ya” kabi kitoblarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Mazkur kitoblarda muallif aqidaviy masalalarni salaflarning yo’llariga mos tarzda bayon qilganlar.

Imom Doraqtuniy yoshligidan o’zining ziyrakligi va zehning o’tkirliligi va o’ta kuchli fahmi bilan nom qozonganlar. Hatto u zot haqida aytilgan ba’zi rivoyatlarda aqli va zakovati insonlarni hayron qoldiradigan darajada o’tkir ekanligi ta’kidlangan.

Shu o'rinda Imom Doraqutniy o'ta kamtar, taqvodor, ilmni faqat ezgulik yo'lida egallagan va tarqatgan olimlardan biri bo'lganligini aytib o'tishimiz lozim. Shogirdlarini orasida ulardan o'zini ayri holda tutmay, balki ularning biriday kamtarin holda yurar edilar. U zotning tavozu va kamtarliklariga yana bir yorqin misol qilib Abu Abdulloh Muhammad ibn Suriyni rivoyatini keltiramiz; "Menga Abdulg'ani ibn Saiyd aytib berdi; "Men mu'talaf va muxtalaf nomli kitobimni yozishni boshlaganimda oldimga Abulhasan Doraqutniy keldi. U zotdan juda ko'p narsalarni o'rganib kitobimga qayd qildim. Kitobni yozib bitirganimdan so'ng mendan uni o'qib berishni so'radilar. Men "Bu kitobni aksar qismini sizdan o'rgandim-ku", deb aytdim. Shunda u zot, "yo'q, unday emas, chunki mendan so'rganlaring tarqoq holatda edi, sen esa uni jamlading va yaxlid bir kitob holatiga keltirding, bundan tashqari bu kitobda sen o'z shayxlaringdan olgan ko'p ilmlar bor", dedilar. So'ng men unga kitobni o'qib berdim".

Imom Doraqutniy bir kuni o'zining yosh shogirdiga "yozgan darslaringni menga o'qib bergin. Zero, men sendan eshitishni (ya'ni sendan eshitib sening shogirding bo'lishni) yaxshi ko'raman", dedilar. Bu buyuk Imomning kamtarligiga bundan boshqa yana bir necha misollarni keltirishimiz mumkin. Bu esa Imom Doraqutniyning o'ta kamtar inson bo'lganligi, ilm o'rganish uchun nechog'lik ishtiyoqmand bo'lganligiga yana bir dalildir.

Abulhasan Doraqutniyning qiro'at ilmidagi Imomligi. Doraqutniy yoshligidan qiro'at ilmida yirik Imom bo'lishni orzu qilgan va shu istak yo'lida tirishqoqlik bilan harakat qildi va natijada o'zi o'ylagandek qiro'at ilmida buyuk inson bo'lib yetishdi. Bu haqida "Muxtasar fiy axboril bashar" kitobining sohibi; "U ko'p ilmlarni mustahkam egallagan edi. Hususan Doraqutniy qiro'at ilmida Imom darajasiga yetgan edi", deb yozadi. Bu zot qiro'at ilmida beqiyos ahamiyat kasb etuvchi kitob bitgan va bu kitobda qiro'at usullarini jamlagan. Bu kitobdagi usullar birinchi jamlangan qiro'at usullari bo'lib, bu yo'nalishdagi keyingi olimlarga qo'llanma bo'lib hizmat qilgan.

Doraqutniyning fiqh ilmidagi Imomligi. Biz Abulhasan Doraqutniyни fiqh ilmidagi alohida mazhab sohibi bo'lgan deb aytmoqchi emasmiz. Lekin muhaddisligi bilan bir qatorda faqih bo'lganligini aytmoqchimiz. Bu zot rivoyat va diroyatning orasini jamlagan inson edi. O'zi Shofe'iy mazhabida bo'lgan. U zotning bu ilmdagi shayxlari Abu Saiyd Astaxriy bo'lgan. Doraqutniyning faqihligi haqida Xatib Bag'dodiy “Tarihi Bag'dod” kitobida quyidagilarni yozadi; “U zot egallagan ilmlarning yana biri bu fiqh ilmidir. Doraqutniy yozgan “Sunan” kitobi ham bu zotning fiqh ilmiga katta e'tibor qilganligidan dalolatdir” .

Abulhasan Doraqutniyning lug'at, nahv, adab va tarix ilmidagi Imomligi. Xatib Bag'dodiy Doraqutniy egallagan ilmlar borasida so'z yuritib quyidagilarni aytadi; “She'r va adab ilmidagi chuqur ma'rifatga ega bo'lgan. Hatto u zot ba'zi shoirlarning sheriylarini yoddan bilgan” .

U zotning lug'at borasidagi ilmi haqida ham yana Xatib Bag'dodiyning o'zlariga quloq tutamiz. “Menga Azhariy aytib bergan. “Abulhasan Misrga kelgan vaqtlarida u yerda Madinalik Shayx Alaviy Muslim ibn Ubaydulloh bor edi. Muslim o'z davrining mashhur, fasohatli kishilaridan edi. Misr ahli yig'ilib Abulhasandan arab tili borasidagi “Nasab” kitobini o'qib berishni so'rashdi. Lekin bunga muvoffaq bo'lmadilar. Muslim esa bu holatdan ajablanib, “bu kishi shuncha ilmlar sohibi bo'lish bilan bir qatorda lug'at ilmidagi ham kitob tasnif qilganmi?” deb aytgan .

Imom Doraqutniy yashagan davr.

Abulhasan Doraqutniy yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek hijriy IV asrda yashab ijod qilganlar. Bu vaqtlar esa musulmonlar hayotida juda ko'p mashaqqatlar paydo bo'lgan davr hisobalanadi. Buyuk Imom yashagan asr haqida gap ketar ekan, uning siyosiy, ijtimoiy va ilmiy holati haqida biroz to'xtalib o'tamiz.

Islom tarixining aynan mana shu vaqtga nazar qiladigan bo'lsangiz bu vaqt musulmonlar ustiga musibatlar yog'ilgan, hayot tarzi og'irlashgan va mehnat qiyinchiliklari ko'paygan payt bo'lganligini bilib olasiz. Zero, bu vaqt musulmon diyorlarining ko'pida hususan, Iroq va uning poytaxti, nafaqat uning poytaxti balki islom olamining markazi va qalbi bo'lgan Bag'dodda tinchlik yo'qolgan payt edi.

Buning esa bir necha sabablari bor edi.

Jumladan;

-Xalifalik borasida ixtilof va kelishmochiliklarning vujudga kelishi. Bu ixtiloflar o'zaro Abbosiylar ichida, hamda ularga qarshi bo'lgan turklar o'rtasida paydo bo'lgan edi.

Imom Doraqutniy Abbosiy xalifa Muqtadirbillahning xalifalik davrida tug'ilganlar. Bu davr siyosiy zaiflik, xalqning qashshoqligi va o'zaro nizolar hukm surgan vaqt edi .

Muqtadirbillahdan so'ng Qoxirbillah undan so'ng esa Roziybillah taxtga o'tirdi va nihoyat ularning oxirgisi Toi'ulloh Abu Bakr bo'ldi. Bu xalifalarning davri ham Muqtadirbillahning xalifalik davriga ko'p jihatlardan o'xshash bo'lgan.

- Xalifalikda vujudga kelgan inqiroz natijasida fitna va qo'zg'olonlarning paydo bo'lishi ham tinch hayotni izdan chiqardi.

- Ayni mana shu vaqtda Qarmatiylarning yuzaga chiqishi butun islom diyorlarida totuv hayotga tahdid soldi. Qarmatiylar sababidan musofirlar safarlaridagi tinchliklarini yo'qotishdi. Hatto haj ziyorati ham bir necha yilga to'xtatib qo'yildi.

Abulhasan Doraqutniyning yashagan davri mana shunday siyosiy tortishuv va nizolardan iborat edi. Bu davrning ijtimoiy holati esa siyosiy holat natijasida yomonlashgan edi. Insonlar hayotida qashshoqlik hukm surgan, iqtisodiy inqiroz vujudga kelgan va o'g'irlik va yo'l to'sarlik kabi yomon illatlar bosh ko'targan edi. Qisqacha aytganda insonlar rohat va farog'atda istiqomat qilmas, balki ko'p holatlarda moddiy qiyinchilik, urush va fitnalarga duchor bo'lar edilar.

Bunday ijtimoiy va siyosiy holat natijasida insonlar ilm ma'rifatdan uzoqlashishlari turgan gap. Ilmning rivojlanishi bu sharoitda inson tasavvuriga sig'maydi. Lekin ayni shu vaqt shar'iy ilmlar tanazzulga uchramagan va hatto rivojlangan, o'sishda davom etgan davr hisoblanadi. Islomiy shaharlar aholisi salafi solihlarning ilmlarini zaxira qilib jamlashda davom etdi. Insonlar saodat yo'li faqatgina ilmlarni o'rganish va uni taraqqatishda deb bilar edilar. Ilm majlislari odamlar bilan to'lar, hadisni o'rganuvchilar shayxlarni etagini mahkam tutar edilar. Bu davr ilmiy

safarlarning juda ko'p bo'lganligi bilan ajralib turadi. Bu narsani shu paytda yashagan olimlarning ilm maqsadida safar qilgan shaharlarning ko'pligidan ham bilishimiz mumkin. Imom Doraqutniyning o'zlari ham juda ko'p shaharlarga ilm talabida safar qilganlar.

Shu davrda Islomiy shaharlar o'ziga jalb qilgan olimlarning sonini adog'iga yetmaydi. Tasnif qilingan kitoblar esa undanda ko'p. Olimlar hijriy III asrning boshini hadis ilmining oltin davri deb ta'riflaydilar. Chunki bu davrda yuqorida takidlaganimizdek juda ko'p kitoblar yozilgan. Hadis hamda unga tegishli ilmlarda ko'plab sharhlar bitilgan. Bu olimlarning ko'plarini umri hijriy IV asrga qadar davom etdi. Bu esa oltin davr, ya'ni Imom Doraqutniy istiqomat qilgan asrda davom etib gullaganligini bildiradi.

Doraqutniy yashagan asr bir qit'adan ikkinchi qit'aga, bir shahardan boshqa bir shaharga ilm talab qilib uyushtirilgan safarlarning ko'pligi bilan ham ajralib turadi. Shuningdek, bu davr islomiy diyorlardan yetishib chiqqan olimlarning ko'pligi va hadis hofizlarining son-sanoqsizligi bilan ham o'ziga xos o'rin tutadi.

Xulosa. Shuni aytishimiz mumkinki, Abulhasan Doraqutniy yashagan davr garchi siyosiy va iqtisodiy jihatdan notinch va beqaror bo'lgan bo'lsada, bu narsa islomiy va shar'iy ilmlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsata olmagan. Aksincha, aynan shu narsaning o'zi ba'zida kishilarni ilm olishga undagan.

Abulhasan Doraqutniy ilmni mana shunday davrda olganlar. U zot ilm talab qilishni yoshligidan boshladi. Ayni mana shu vaqtda Alloh taoloning shari'ati ilmini o'z zimmasiga olish uchun mas'uliyat hissi va o'z o'rnida shunga yarasha qobiliyat u zotda zohir bo'la boshladi. Insonlar bu zot kelajakda buyuk inson bo'lib yetishishlari haqida ko'p gapirishar edi. Bu haqida Imom Doraqutniyning o'zlari; "Men va Kattoniy birgalikda shayxlardan hadis eshitar edik. Insonlar Kattoniy muhaddis Doraqutniy muqri' bo'ladi deb aytishar edi. Kattoniy muqri' bo'ldi men esa muhaddis bo'ldim", deb aytadilar.

Doraqutniy yoshligidan o'tkir zehn va fahm sohibi deb nom qozongan. Xatib Bag'dodiy u haqida: «O'z asrining eng yuksak ilm sohibidir», degan. Ilmlarni, xususan

hadislarni yod olishda benazir bo'lgan va natijada «hadisning amiri» degan unvon olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimov U. Sunnat va Hadis. – Toshkent. Sharq, 2012.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent.TIU,2007.
3. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Oltin silsila. Hilol nashr. 2013.
4. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot.Toshkent-2008.
5. Buxoriy. Al-jome' as-sahih. – Qohira. Dorush-sha'b, 1987.
6. Abu Dovud. Sunan. – Bayrut. Dorul kitab al-arabiy, 1346 h.
7. Muslim. Al-jome' as-sahih. –Bayrut. Dorul jayl, 1989.
8. Ibn Moja. Sunan. – Bayrut. Dorul fikr. 2001. Tabariy M. Tarixul umami val muluk. –Muhsiniya. 1988.
9. Zoyfulloh Rohiyliy. Imom abul Hasan Doraqutniy va osoruhul ilmiyya. –PDF. Variant 2000.